

## ShARTNOMA

Autsorsing shartlari asosida xizmatlarni ko'rsatish bo'yicha

2022 yil «16» 6

2022-2611-4-66-  
TB-son

Chiroqchi tumani

Ushbu shartnomaga asosan bir tomondan «LAZZAT YAB» I/CH MCHJ nizomiga asoan faoliyat yurituvchi MChJ rahbari A.Yaxshiboev (keyingi o'rnlarda «Mahsulot yetkazib beruvchi» (AUTSORSER) deb yuritiladi) hamda ikkinchi tomondan Chiroqchi tuman Tibbiyot birlashmasi boshlig'i v.v.b E.Arziyev (keyingi o'rnlarda «Buyurtmachi» deb yuritiladi)lar ushbu shartnomada quyidagilar haqida tuzib imzolandi.

### 1. Shartnoma predmeti

1.1 Autsorser Buyurtmachining buyurtmasi bo'yicha amalagi qonunchilik talablari asosida AUTSORSING xizmatlarni ko'rsatish, «Buyurtmachi» esa ko'rsatilgan AUTSORSING xizmatlarni haqini shartnomada ko'rsatilgan muddatda to'lab berish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

1.2 Autsorsing xizmati ko'rsatish muddati: 2022 yil «01» Apreldan 2022 yil «31»dekabrgacha.

1.3 Tomonlar bajarilgan ishlarning yig'ma dalolatnomasi va Autsorser tomonidan amalda ko'rsatilgan Xizmatlar uchun belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan hisob-faktura imzolanib Buyurtmachi Autsorserning mazkur Shartnomada ko'rsatilgan bank hisob-raqamiga pul mablag'lari o'tkazgandan so'ng Xizmatlar ko'rsatilgan deb hisoblanadi.

### 2. Tomonlarning huquq va majburiyatları

1.4 Autsorser quyidagi huquqlarga ega:

1.4.1 Ijaraga olingan mol-mulkdan foydalanish;

1.4.2 Ijaraga olingan bino va inshootlarning ichki va tashqi qismida texnik jihatdan jihozlash va ta'mirlash ishlarini amalga oshirish;

1.4.3 Xizmatlar tannarxining o'zgarishi munosabati bilan shartnomaga o'zgartirish kiritish taklifi bilan chiqish;

1.4.4 Ko'rsatilgan xizmatlar uchun o'z vaqtida to'lovlar amalga oshirilishini talab qilish;

1.4.5 Ko'rsatilgan xizmatlar natijasida foyda olish;

1.4.6 Buyurtmachidan shartno ma shartlarining bajarilishini talab qilish;

1.4.7 Autsorserning Qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlari mavjud bo'lishi mumkin.

1.5 Autsorser quyidagilarga majbur:

2.2.2 Ijaraga olingan bino va inshootlar, jihozlardan maqsadli hamda oqilona foydalanishi, saqlashi, nosoz holga kelganda ularni o'z hisobidan ta'mirlashi, shuningdek, kommunal xarajatlarini qoplashi;

2.2.3 Autsorsing xizmatini ko'rsatishda texnika, yong'in, mehnat muhofazasi hamda sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga qat'iy rioya etishi;

2.2.4 Tovar (ishlar, xizmatlar)ning sifatlari ishlab chiqarilishini va buyurtmachiga yetkazilishini ta'minlashi;

2.2.5 Maxfiylik tartibiga qat'iy rioya qilishi;

2.2.6 Shartnomani bekor qilish haqida buyurtmachini ikki oy oldin yozma ravishda ogohlantirish, ushbu muddat tugaganiga qadar esa buyurtmachining tegishli xizmatlarini uzlusiz tashkil etishni ta'minlashi;

2.2.7 Xizmatlarni sifatlari, mazkur Shartnomada shartlarida ko'rsatilgan muddatda va to'liq hajmda ko'rsatishi;

2.2.8 Xizmatlar ko'rsatish jarayonida Autsorser mazkur shartnomada shartlariga amal qilmasdan, xizmatlar sifatining yomonlashuviga olib kelgan barcha kamchiliklarni Buyurtmachining talabi bo'yicha bir kun davomida bepul to'g'rilashi;

2.2.9 Xizmatlarning sifatsizligi, xizmatlarni bajarish uchun vaqtinchalik foydalanishga beriladigan ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) xonalari holati, shuningdek, tegishli inventarlarning sanitariya qoidalariiga javob bermasligi aniqlanganda, Autsorser zudlik bilan Buyurtmachining aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha qonuniy talabini bajarishi;

2.2.10 Malakali, tajribali, qo'yilgan vazifani (xizmatni, ishni) amalga oshirish huquqini beruvchi tegishli hujjatlari mavjud bo'lgan, shuningdek, belgilangan tartibda va muddatda tibbiy tekshiruvdan (ko'rikdan) o'tgan xodimlarga (talab etilgan hollarda) xizmatlarni bajarish jarayoniga ruxsat etishi;

2.2.11 Xodimlar zimmasiga Buyurtmachining hududida odob-axloq qoidalariga, shuningdek, ichki tartibga rioya qilish majburiyatini yuklashi;

2.2.12 Xizmat ko'rsatish bo'yicha ishlarni shaxsan bajarishi, mazkur Shartnoma shartlarini bajarishni uchinchı shaxsga topshirmsligi;

2.2.13 Mazkur shartnoma shartlarini bajarish doirasida Buyurtmachi tomonidan vaqtincha foydalanishga topshirilgan uskunalar, jihozlar, idishlar, asboblar, mebellar, inventarlar va boshqalar moddiy vositalarni soz holda saqlashi, ta'mirlashi, shuningdek, binolarni ta'mirlashi;

2.2.14 Tomonlar imzolaydigan tegishli qabul qilish-topshirish dalolatnomasini rasmiylashtirgan holda, Buyurtmachidan binolarni (xonalarni), uskunalarni, jihozlarni, asboblarni, mebellarni, inventarlar va boshqalar moddiy vositalarni qabul qilib olishi;

2.2.15 Mazkur shartnomani bekor qilish haqida Buyurtmachini ikki oy oldin yozma ravishda ogohlantirishi, ushbu muddat tugaguniga qadar esa Buyurtmachiga xizmatlarni uzluksiz ko'rsatilishini ta'minlashi;

2.2.16 Mazkur shartnomaga asosan Xizmatlarni ko'rsatish ishlariga jalg etilgan xodimlarni o'qitishni (malakasini oshirishni) amalga oshirishi (talab etilgan hollarda);

2.2.17 Autsorserning Qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlar.

2.3 Buyurtmachi quyidagi huquqlarga ega:

2.3.1 Tovarlar (ishlar, xizmatlar) sifatli ishlab chiqarilishi (bajarilishi, ko'rsatilishi)ni talab qilish;

2.3.2 Autsorserning faoliyatiga aralashmagan holda, shartnoma shartlarining bajarilishini nazorat qilish;

2.3.3 Shartnomani bekor qilish to'g'risida 10 kun oldin Autsorserni yozma ravishda ogohlantirish, bunda ko'rsatilgan xizmatlarning qiymatini belgilangan tartibda to'lash;

2.3.4 Buyurtmachining Qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlar.

2.4 Buyurtmachi quyidagilarga majbur:

2.4.1 Bajarilgan ishlarning yig'ma dalolatnomasi va rasmiylashtirilgan hisob-faktura asosida ko'rsatilgan xizmatlar uchun amaldagi narxlar bo'yicha bir oyda kamida bir marta Xizmatlar haqini to'lashi;

2.4.2 Autsorserga mazkur Shartnoma shartlarini bajarish doirasida binolarni (xonalarni), uskunalarni, jihozlarni, asboblarni, mebellarni, inventarlar va boshqa moddiy vositalarni vaqtincha foydalanishga berishi;

2.4.3 Buyurtmachining Qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlar.

### 3

### Xizmatlar narxi va o'zaro hisob-kitoblar tartibi

3.1 Shartnomanin umumiyligi: 457 448 848.00 (To'rt yuz ellik yetti million to'rt yuz qirq sakkiz ming sakkiz yuz qirq sakkiz) so'mni tashkil etadi.

3.2 Ushbu shartnoma bo'yicha to'lovlar, korsatilishi lozim bo'lgan AUTSORSING xizmatlari uchun buyurtmachi oldindan shartnomaning umumiyligi 30 (o'ttiz) foiz ya'ni 137 234 654.04.(bir yuz o'ttiz yeti million ikki yuz o'ttiz to'rt ming olti yuz ellik to'rt so'm to'rt tiyin)ni shartnoma imzolangan kundan boshlab uch bank kunida qolgan 70 (et mish) foiz ya'ni 320 214 193.6 (uch yuz yigirma million ikki yuz o'n to'rt ming bir yuz to'qson uch so'm olti tiyin) ni AUTSORSING xizmatlari to'liq bajarilib, buyurtmachi tomonidan qabul qilinganidan keyin hisob fakturaga asosan 30 (o'ttiz) bank kunida pul ko'chirish yo'li bilan to'lab beriladi.

3.3 Autsorser tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar uchun o'zaro xisob-kitoblar bajarilgan ishlarning yig'ma dalolatnomasi va rasmiylashtirilgan xisob-faktura asosida ko'rsatilgan xizmatlarning amaldagi qiymati bo'yicha bir oyda kamida bir marta amalga oshiriladi.

3.4 Ko'rsatiladigan xizmatlarning amaldagi soni xaqidagi ma'lumotlar va xizmatlarning amaldagi narxi asosida Buyurtmachi kundalik buyurtmaga muvofiq Autsorser bilan birgalikda har o'n kunda, to'lanishi lozim bo'lgan summasi ko'rsatilgan, Autsorser va Buyurtmachi tomonidan imzolanadigan bajarilgan ishlarning yig'ma dalolatnomasi tuziladi va hisob-faktura rasmiylashtiradi.

3.5 Buyurtmachi tomonidan amalda ko'rsatilgan xizmatlar narxi belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan bajarilgan ishlarni dalolatnomasi va hisob-faktura olingan vaqtidan boshlab, 10 bank kuni davomida Shartnomada belgilangan summadan ortiq bo'limgan miqdorda to'lanadi.

3.6 Mazkur Shartnomaning ilovasida ko'rsatilgan, shartnomaning prognoz summasini hisoblash uchun xizmatlarning narxlari tomonlardan birining tashabbusi bilan qayta ko'rib chiqiladi.

### 4.Tomonlarning javobgarligi.

4.1 xizmat ko'rsatish muddatlari kechiktirib yuborilgan, bajarilmagan hollarda, xizmat ko'rsatuvchi buyurtmachiga kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyat bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorida penya

to'laydi, biroq bunda penyaning umumiy summasi yetkazib berilmagan tovarlar, bajarilmagan ishlar yoki ko'rsatilmagan xizmatlar bahosining 50 foizidan oshib ketmasligi lozim.

4.2 Autsorser bajarilgan xizmatlar sifati, mahsulot assortimenti va navi bo'yicha standartlar, texnik shartlar, namunalarga (etalonlarga) qonunchilikda yoki shartnomada belgilangan boshqa majburiy shartlarga mos kelmasa, buyurtmachi xizmatlarni qabul qilishni hamda ularning haqini to'lashni rad etib, autsorserdan sifati, assortimenti va navi lozim darajada bo'limgan mahsulotlarni qiymatining 20 foizi miqdorida jarima undirib olishga, agar mahsulotlar haqi to'lab qo'yilgan bo'lsa, to'langan summani belgilangan tartibda qaytarishni talab qilishga haqlidir. Sifati, assortimenti va navi lozim darajada bo'limgan mahsulotlar yetkazib bergenlik uchun jarima autsorserdan akseptatsiz tartibda undirib olinadi.

4.3 Autsorser but bo'limgan mahsulot yetkazib berilgan taqdirda sotib oluvchi (buyurtmachi): tovarlarni butlab berishni talab qilishga haqli. Yetkazib beruvchi sotib oluvchining (buyurtmachining) talabini olgan paytdan boshlab o'n besh kunlik muddat ichida tovarlarni butlab berishi shart;

Buyurtmachi mahsulotlar butlab berilgunga qadar ularning haqini to'lashdan bosh tortishga, agar mahsulotlarning haqi to'lab qo'yilgan bo'lsa, belgilangan tartibda to'langan summalar qaytarilishini talab qilishga haqli hamda yetishmayotgan mahsulotlar qismlar qiymatini qo'shgan holda, autsorser but bo'limgan tovarlar qiymatining 20 foizi miqdorida jarima undirishga haqli.

4.4 «Buyurtmachi» bajarilgan xizmatlar haqini o'z vaqtida to'lamaganlik uchun autsorserga o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun kechiktirilgan to'lov summasining 0,4 foizi miqdorida, ammo kechiktirilgan to'lov summasining 50 foizidan ortiq bo'limgan miqdorida penya to'laydi.

4.5 Penya, jarima to'lash shartnoma majburiyatlarini buzgan tarafni shartnomani asosaiy shartlarini bajarishdan ozod etmaydi.

### **5.Shartnoma bo'yicha kelishmovchiliklarni hal etish tartibi.**

5.1 Tomonlarning kelishuvi bilan hal kilib bo'lmaydigan nizolar qonun hujjatlarda belgilangan tartibda tegishli tuman-shahar, viloyat Iqtisodiy sudi orqali sud tartibida hal qilinadi.

### **6.Boshqa shartlar.**

6.1 Mazkur shartnoma O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksiga muvofik tegishli tartibda G'aznachilik bo'limlarida ruyxatdan utkazilgan kundan boshlab qonuniy kuchga kiradi va tomonlar ushbu shartnoma buyicha o'z majburiyatlarini tulik bajarishi uchun asos xisoblanib 2022 yil 31 dekabrgacha amal qiladi.

6.2 shartnomaga taraflarning kelishuviga muvofiq o'zgartirilishi va bekor qilinadi. Shartnoma shartlarini bajarishdan bir taraflama bosh tortishga yoki shartnoma shartlarini bir taraflama o'zgartirishga yo'l qo'yilmaydi. Taraflardan birining talabi bilan shartnoma iqtisodiy sudning qaroriga binoan faqat ikkinchi taraf shartnoma shartlarini jiddiy ravishda buzgan hollarda o'zgartirilishi yoki bekor qilinishi mumkin.

6.3 Moddalarni ko'rsatuvchi so'z boshi shartnoma matnnini ishlashda qulaylik yaratish uchun qo'yilgan va bular shartnomani boshqacha talkin qilishga asos bo'lmaydi.

6.4 Ushbu shartnoma taraflarning barcha shartlarini aks etilgan.

6.5 Sifat, tovar (maxsulot)larning ushbu guruxi uchun amaldagi standartlarga muvofik kelishi kerak.

### **7 Korrupsiyaga qarshi shartlar**

7.1 Tomonlar, ularning affilangan (o'zaro bog'langan) shaxslari va xodimlari, ushbu Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishlari davomida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari talablarining buzilishiga olib keladigan va/yoki korrupsiya xarakteriga ega bo'lgan, shu jumladan (ammo bu bilan cheklanmay) pora berish yoki berishni va'da qilish, ta'magirlilik, pora olishga bevosita yoki bilvosita rozi bo'lish xatti-harakatlari/harakatsizliklarini sodir etmaydilar.

7.2 Tomonlar, ularning affilangan (o'zaro bog'langan) shaxslari va xodimlari boshqa Tomonning xodimlari yoki vakolatlangan vakillarini qandaydir tarzda rag'batlantirishdan, shu jumladan pul summalarini, sovg'alarni taqdim etish, ularning manziliga xizmatlarni beg'araz ko'rsatish yoki bu xodim yoki vakolatlangan vakil tomonidan uni rag'batlantiruvchi Tomon foydasiga qandaydir xatti-harakatlarni/harakatsizliklar bajarishini ta'minlashga qaratilgan ishlarni bajarishdan voz kechadilar deb ma'lum qiladilar.

7.3 Tomonda ushbu Shartnoma shartlari buzishini sodir etilganligi yoki sodir etilishi mumkinligi to'g'risidagi shubhalar yuzaga kelgan holda, tegishli Tomon bu haqda ikkinchi Tomonni xabardor qilish, korrupsiya bilan kurashish sohasidagi O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlarining normalari buzilganligi

faktining rad etib bo'lmaydigan dalillari mavjud bo'lgan holda esa – amaldagi Qonun hujjatlarida belgilangan tartibda vakolatli organlarni ham xabardor qilish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

#### 8. Fors-major.

8.1 Tomonlar shartnoma shartlarini bajarishlari mobaynida ularning hoxish va yerki-irodasiga bog'liq bo'limagan kuchlar to'sqinlik qilsa, jumladan: tabiiy ofatlar, zilzila, suv toshqini, urush holati e'lon qilinsa, amaldagi qonunchilikning o'zgarishi kabi holatlarda fors-major xolati e'lon qilinadi. Qaysi tomon uchun fors-major holati sodir bo'lsa, ushbu xolat haqida ikkinchi tomonni yozma ravishda ogoxlantirishi shart. Fors-major xolatlari 3 oy yoki undan ortiq davom etsa tomonlar shartnoma shartlarini bajarishdan qisman yoki to'liq ozod etiladilar

#### 9. Shartnoma muddati.

9.1 Shartnomaning amal qilish muddati 31 dekabr 2022 yilgacha

9.2 Ushbu shartnoma tomonlar uchun bir xil kuchga ega bulib 2 (ikki) nusxada tuzildi.

#### 10. Tomonlarning yuridik manzillari:

##### «Autsorser»

Chiroqchi tumani «Lazzat Ya.B»i/ch mchj  
Manzil:Qashqadaryo viloyati Chiroqchi t Mustaqillik  
ko'chasi 37  
Bank nomi: Agro bank Chiroqchi tumani filiali:  
sh/x 20208000904124191001  
STIR:203637267, OKED 71150  
MFO 00174  
Tel:/faks +998906677494  
Raxbar A.B.Yaxshiboyev

##### «Buyurtmachi»

Chiroqchi tuman Tibbiyot Birlashmasi  
Manzil:Qashqadaryo viloyati Chiroqchi tumani  
Tel:/faks: \_56-22-478  
Sh/X: 100022860102427073201054005  
INN:200707632 OKED 91511  
Uzbekiston respublikasi moliya vazirligi  
gaznachilik bo'lismi:  
Gazna X/R:23402000300100001010  
Bank:Markaziy bank BBXKKM Toshkent sh  
MFO:00014  
G'azna Birlashmasi INN: 201122919



E.A.Arziev.

## Korrupsiyaga qarshi qoidalarining ASOSIY SHARTLARI

1. Tomonlar shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarayotganda O'zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlarining talablariga zid keladigan har qanday harakatlarni amalga oshirmaydilar, shu jumladan pora, ya'ni Chiroqchi tumani Tibbiyot Birlashmasi xodimi o'z xizmat majburiyatlaridan foydalangan holda pora bergen shaxsning manfaatlarini ko'zlab muayyan harakatlarni sodir etishi yoki sodir etmasligi shartligi yohud mumkinligi uchun moddiy qimmatliklarni yoki mulkiy naf olish uchun quyidagi harakatlarni qilmaydi:

- pora berishni taklif qilish yoki va'da berish;
- tovlamachilik qilish;
- pora sifatida pul to'lash;
- bevosita yoki bilvosita pora olishga rozilik berish.

Tomonlar ushbu harakatlarga yo'l qo'ymaslik bo'yicha choralar ko'rlishiga kafolat beradi.

2. Agar shartnoma bo'yicha bir Tomon Chiroqchi tumani Tibbiyot Birlashmasi xodimining axloqqa to'g'ri kelmaydigan va ushbu shartnoma yoki O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlariga zid keladigan xatti-harakatlariga, shu jumladan, korrupsiyaga oid huquqbazarlik sodir etishga majburlashdan iborat bo'lgan faktlarga duch kelsa, bu haqda quyidagi aloqa kanallaridan biri orqali xabardor qilishi kerak:

- korrupsiya haqida xabar berishga mo'ljallangan ishonch telefoni;

- Telegram-kanali (@XXXXXXXXXX);

Chiroqchi tumani Tibbiyot Birlashmasi rasmiy veb-saytida joylashtirilgan shakl yoki elektron pochta.

### TOMONLAR:

#### «Autsorser»

Chiroqchi tumani «LazzatYaB» i/ch mchj



Raxmat A.B.Yaxshiboyev

#### «Xaridor»

Chiroqchi tuman Tibbiyot Birlashmasi



Raxmat E.A.Arziev.

**YURIDIK AHAMKIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN  
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA HUQUQIY XULOSA**

1. Loyihaning turi: Sharhnoma

2. Loyihaning nomi: Autsorsing shartlari asosida xizmatlarni ko'rsatish to'g'risida

3. Loyihaning mazniuni: Buyurtmachi Chiroqchi tuman Tibbiyot birlashmasi buyurtmasiga asosan ta'minotchi (AUTSORSER) «LAZZAT YAB» I/CH MCHJ tomonidan umumiyligi 457 448 848.00 (To'rt yuz ellik yetti million to'rt yuz qirq sakkiz ming sakkiz yuz qirq sakkiz) so'mlik Autsorsing shartlari asosida xizmatlarni ko'rsatish to'g'risida sharhnoma.

4. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot: Chiroqchi tuman Tibbiyot birlashmasi hisobchisi Umirzaqova Shoxida Turdimuratovna tomonidan ikki ming yigirma ikkinchi yil iyun oyining o'n to'rtinchi kuni.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

Chiroqchi tumani Yuridik  
xizmat ko'rsatish markazi  
bosh yuristkonsulti  
2022 yil «14» iyun



Sh.I.Usmanov



Чирокчи туман тиббиёт бирлашмаси бош шифокори Э.Арзиевга

### Хизмат таклифи

Чирокчи туман "Лаззат ЯБ" и/ч Маъсулияти чекланган жамияти. Сизга Чирокчи туман тиббиёт бирлашмасига карашли Юкумли Касалликлар Шифохонасига 2022-йил апрел-декабр ойлари учун куйдаги нархлар асосида тайёр ва сифатли иссик овкат билан таъминлашни таклиф килади.

№	Таом номи	Улчов бирлиги	микдори	Нархи	суммаси
1	Ширин чой	порц	3200	765,6	2 449 920
2	Печени	порц	3200	504,0	1 612 800
3	Нон	порц	4400	1 080,0	4 752 000
4	Сариёғ	порц	2000	2 256,0	4 512 000
5	Сут	порц	1600	2 160,0	3 456 000
6	Кифер	порц	3200	1 800,0	5 760 000
7	Маний каша	порц	3840	5 300,0	20 352 000
8	Ширгуруч	порц	3840	5 020,0	19 276 800
9	Мастава	порц	3840	11 250,0	43 200 000
10	Гречка палови	порц	3840	10 287,8	39 505 152
11	Шовла	порц	3840	10 607,8	40 733 952
12	Перловка буткаси	порц	3920	11 679,8	45 784 816
13	Макарон шурва	порц	3920	11 835,8	46 396 336
14	Нухат шўрва (гороҳ)	порц	3440	11 919,8	41 004 112
15	Мошхурда	порц	3440	12 063,8	41 499 472
16	Картошка бўтқаси	порц	2080	6 084,6	12 655 968
17	Сабзавотли макарон	порц	2000	13 706,6	27 413 280
18	Сабзавот шўрва	порц	2000	12 999,8	25 999 600
19	Палов	порц	2000	10 376,6	20 753 200
20	Салат	порц	2000	2 648,6	5 297 200
21	Тухум	порц	1760	1 080,0	1 900 800
22	Кампот	порц	2720	1 152,0	3 133 440
	Жами:	x	x	x	457 448 848

"Лаззат ЯБ" и/ч МЧЖ раҳбари:



А.Яхшибоев



Чирокчи туман тиббиёт бирлашмаси  
бош шифокори Э.Арзиевга

### Хизмат таклифи

Чирокчи туман "Элегант МБ" Маъсулияти чекланган жамияти. Сизга Чирокчи туман тиббиёт бирлашмасига карашли Юкумли Касалликлар Шифохонасига 2022-йил апрел-декабр ойлари учун куйдаги нархлар асосида тайёр иссик овкат билан таъминлашни таклиф килади.

№	Таом номи	Улчов бирлиги	микдори	Нархи	суммаси
1	Ширин чой	порц	3200	763,0	2 441 600
2	Печени	порц	3200	504,0	1 612 800
3	Нон	порц	4400	1 080,0	4 752 000
4	Сариёғ	порц	2000	2 256,0	4 512 000
5	Сут	порц	1600	2 160,0	3 456 000
6	Кифер	порц	3200	1 800,0	5 760 000
7	Манний каша	порц	3840	5 323,00	20 440 320
8	Ширгуруч	порц	3840	5 336,00	20 490 240
9	Мастава	порц	3840	11 523,00	44 248 320
10	Гречка палови	порц	3840	10 286,0	39 498 240
11	Шовла	порц	3840	10 405,0	39 955 200
12	Перловка буткаси	порц	3920	11 673,0	45 758 160
13	Макарон шурва	порц	3920	11 834,00	46 389 280
14	Нухат шўрва (горох)	порц	3440	11 915,0	40 987 600
15	Мошхўрда	порц	3440	12 041,0	41 421 040
16	Картошка бўтқаси	порц	2080	6 043,0	12 569 440
17	Сабзавотли макарон	порц	2000	13 700,00	27 400 000
18	Сабзавот шўрва	порц	2000	12 900,0	25 800 000
19	Палов	порц	2000	10 340,0	20 680 000
20	Салат	порц	2000	2 646,0	5 292 000
21	Тухум	порц	1760	1 080,0	1 900 800
22	Кампот	порц	2720	1 150,00	3 128 002
	Жами:	x	x	x	458 493 042

"Элегант МБ" МЧЖ раиси



У.Лутфуллаев

*Юридик шахсни давлат руйхатидан утказили түгрисида*

## ГУВОХНОМА

Реестрдаги тартиб раками № 3

2004 й 12 январ

Мазкур гувохнома юридик шахс

"Элегант МБ"

### масъулияти чекланган жамият

(юридик шахс булган дехкон хужаликлари, фермер 'хужаликлари учун ажратилган ер участкаси ва унинг майдони курсатилиди) берилган.

ТХШ

Ташкилий хукукий шакли

**1152**

МШ

Мулкчилик шакли

**142**

МХОБТ

Почта манзили

**1710242500**

КТУТ

Юридик шахснинг манзили

**19225457**

ХХТУТ

Тармок коди

**71150**

СТИР

Солик туловчининг идентификация раками

**204781080**



Вакоҳатли орган раҳбари:

Кушимча мажлумотлар

Э.Едгоров

QASHQADARYO VILOYATI  
CHIROQCHI TUMANI XOKIMLIGI  
*Юридик шахсни давлат рўйхатидан умканини тургисид:*

**ГУВОХНОМА**

Реестрдаги тартиб раками № 19

2011 й. 12 Январ

Мазкур гувохнома юридик шахс

"ЛАЗЗАТ ЯБ" ишлаб чикариш

масьуляти чекланган жамиятига

(юридик шахс булган дехон хужаликлари, фермер хужаликлари учун ажрагилган ер участкаси ва унинг майдони курсатилади) берилган.

ТХШ

Ташкилий хукукий шакли

1150

МШ

Мулкчилик шакли

142

МХОБТ

Почта манзили

1710242501

КТУТ

Юридик шахснинг манзили

18094674

ХХТУТ

Тармок коди

71150

СТИР


Солик туловчининг идентификация раками

203637267



*Кайнар гувохнома - шахс*

18/113

  
Ш.Усманов